



THE ESSENCE OF THE PRINCIPLE OF EXEMPLARITY IN ENHANCING THE FATHER'S STATUS IN THE FAMILY

Gulchehra Abdulkarimovna Karimova

Doctor of Philosophy (PhD)

Acting Associate Professor of the Department of "Humanities" of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: father's position, exemplary behavior, family, morality, upbringing, spirituality, responsibility, example, role model, social consciousness, mutual respect.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the social and spiritual essence of the principle of exemplary behavior in enhancing the father's role in the family. The manifestation of the father's moral example, responsibility, and patriotic qualities in family upbringing is highlighted as the main factor in the formation of a positive moral orientation in children. The article scientifically analyzes the socio-philosophical content of exemplary behavior, its educational function in the institution of the family, and its role in the development of paternal culture in modern conditions. Also, in the context of spiritual reforms in the New Uzbekistan era, ways to strengthen family unity, mutual respect, and moral balance through the exemplary behavior of the father's personality are shown. The research results substantiate the need to strengthen the principle of exemplarity in the system of family values.

OILADA OTANING MAVQEINI OSHIRISHDA IBRATLILIK TAMOIYILINING MOHIYATI

Gulchehra Abdulkarimovna Karimova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti v.b. falsafa doktori (PhD) Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ota mavqei, ibratlilik, oila, axloq, tarbiya, ma'naviyat, mas'uliyat, ibrat, namuna, ijtimoiy ong, o'zaro hurmat.

Annatatsiya: Ushbu maqolada oilada otaning mavqeini oshirishda ibratlilik tamoyilining ijtimoiy va ma'naviy mohiyati tahlil qilinadi. Ota shaxsining axloqiy namunasi, mas'uliyat va vatanparvarlik fazilatlarini oilaviy tarbiyada namoyon etishi farzandlarda ijobiy axloqiy orientatsiyani shakllantirishning asosiy omili sifatida yoritiladi. Maqolada ibratlilikning ijtimoiy falsafiy mazmuni, uning oila institutidagi tarbiyaviy funksiyasi hamda zamonaviy sharoitda otalik madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston davrida ma'naviy islohotlar kontekstida ota shaxsining namunaviy xatti-harakatlari orqali oilaviy birdamlik, o'zaro hurmat va axloqiy muvozanatni mustahkamlash yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari ibratlilik tamoyilini oilaviy qadriyatlar tizimida mustahkamlash zaruratini asoslaydi.

СУЩНОСТЬ ПРИНЦИПА ОБРАЗЦОВОСТИ В ПОВЫШЕНИИ СТАТУСА ОТЦА В СЕМЬЕ

Гулчехра Абдукаримовна Каримова

и.о. доцента кафедры "Гуманитарных наук"

Ташкентского университета информационных

технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, доктор философии (PhD)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: отцовский статус, образцовость, семья, нравственность, воспитание, духовность, ответственность, пример, образец, общественное сознание, взаимное уважение.

Аннотация: В данной статье анализируется социальная и духовная сущность принципа образцовости в повышении статуса отца в семье. Нравственный пример отца, проявление качеств ответственности и патриотизма в семейном воспитании освещается как основной фактор формирования у детей положительной нравственной ориентации. В статье на научной основе анализируется социально-философское содержание назидания, его воспитательная функция в институте семьи и роль в развитии культуры отцовства в современных условиях. Также в контексте духовных реформ в период Нового Узбекистана показаны пути укрепления семейной солидарности, взаимного уважения и нравственного баланса через примерное поведение отца. Результаты исследования

обосновывают необходимость укрепления принципа образцовости в системе семейных ценностей.

Kirish. Bugungi kunda jismonan sogʻlom, maʼnan yetuk, axloqan pok va yuksak madaniyatli shaxsni voyaga yetkazish oilaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunga erishish uchun, avvalo, oiladagi tarbiyaga katta ahamiyat berish zarur. Oila tarbiyasi deganda, bolaning har tomonlama kamol topishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, uni jamiyat hayotiga tayyorlash hamda mukammal shaxsni shakllantirishga yoʻnaltirilgan faoliyat tushuniladi.

Sharq axloqiy taʼlimotiga koʻra, oila tarbiyasi bolaning tugʻilganidan boshlab, to u mustaqil shaxs boʻlguniga qadar uzluksiz davom etadi. Oilaviy tarbiyaning eng asosiy shakli bu er-xotinning oʻzaro hurmati, samimiy muomalasi, bir-biriga mehr koʻrsatishi va hamkorligidir. Bu farzandlar tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki bola aytilgan pand-nasihatni unutishi mumkin, ammo koʻrganlari umrbod yodida qoladi. Shuning uchun tarbiyaning bu jihatiga eʼtibor qaratish zarur.

Oila tarbiyasi oilaning barqarorligini taʼminlashda va undagi munosabatlarni aniq maqsadlarga yoʻnaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar oila qurishdan koʻzlangan maqsad farzandlar tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlsa, er-xotinning shaxs sifatida yanada kamol topishini taʼminlasa hamda oila uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlarni yaratish, uy muhitining shinamligi va ozodaligini saqlashga yoʻnaltirilgan boʻlsa, oilaviy munosabatlar yanada mustahkam boʻladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. shuni koʻrsatadiki, oilada otaning mavqeini oshirish masalasi koʻplab ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik tadqiqotlarda muhim yoʻnalish sifatida oʻrganilgan. Mahalliy va xorijiy mualliflar (A. Avloniy, M.Behbudiy va J.Dewey, E.Fromm va boshqalar) oilaviy tarbiyada otaning ibratli xatti-harakati, masʼuliyatli yetakchiligi va axloqiy namunadorligini jamiyat barqarorligining maʼnaviy omili sifatida baholaganlar. Soʻnggi yillarda Yangi Oʻzbekiston sharoitida oila institutini mustahkamlash, otalik madaniyatini rivojlantirish va maʼnaviy qadriyatlarni tiklashga oid davlat dasturlari ham ibratlilik tamoyilining amaliy ahamiyatini kuchaytirgan. M.Quronov, G.Karimova, S.Inoyatova, M.Toshmurodov kabi tadqiqotchilarning tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, ibratlilik – otaning shaxsiy fazilatlarini orqali farzand tarbiyasiga bevosita taʼsir etuvchi asosiy maʼnaviy mexanizm sifatida namoyon boʻladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi vaqtda otalarning taʼlim-tarbiya jarayonidagi roli va ahamiyati keng muhokama qilinmoqda. Otaning ishtirokisiz, farzandning toʻlaqonli shaxs sifatida shakllanishi, u qiz yoki oʻgʻil boʻlishidan qatʼi nazar, ancha murakkab kechadi. Bola tarbiyasi

haqida soʻz yuritilganda, mavzu koʻpincha onalar bilan bogʻlanib ketadi, ota esa eʼtibordan chetda qoladi. Aslida esa, bola hayotga aynan ota sababli keladi. Duolarda “ota-onamni” iborasi tilga olinishi, maktabda “ota-onalar majlisi” deb nomlanishiga qaramay, bugungi kunda otaning mavqei koʻpincha eʼtibordan chetda qolmoqda. Uni asosan boquvchi sifatida qabul qilish odat tusiga kirgan.

Uzoq vaqt davomida jamiyatda bolaning rivojlanishi jarayonida otaning rolining ahamiyati pastligi haqida keng tarqalgan fikr mavjud edi. M.Midga tegishli mashhur ibora bor: “Otalar biologik zarurat, lekin ijtimoiy baxtsiz hodisadir”[1]. Bolalikning tabiatini oʻrganib, S.Freyd oʻz asarlarida har bir bolada ota himoyasiga tabiiy ehtiyoj seziladi, deb yozgan. Shunday qilib, erkak barcha oila aʼzolarining manfaatlarini ishonchli himoyachisi sifatida kutilgan vazifani bajaradi. Aynan mana shunday himoya kelajakda mustaqil shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi. Agar bola uchun ona qiyofasi sevgi va soʻzsiz qabul qilish ramzi boʻlsa, otaning qiyofasi harakatlar ustidan nazorat (tashqidan ichki tomonga oʻtish) va keyinchalik fikrlarning ramzidir[2]. Koʻpincha ota deyilganda qoʻrquv soluvchi, qoʻpol, boladan uzoqroq turuvchi, erkalatmaydigan, qattiq jazolovchi, har qanday gapi soʻzsiz bajarilishini istagan, bolaning taʼlim-tarbiyasini ayoliga yuklab qoʻygan inson tushuniladi. Aslida ota deganda, farzandlariga himoya, suyanch boʻladigan, ularni qoʻllab-quvvatlaydigan, mehr-muhabbat koʻrsatadigan, tarbiyasida faol ishtirok etadigan, oilaning muammolarini birgalashib hal qiladigan inson tushunilishi kerak.

Ota – bu oila boshligʻi, oilaning zarardast ustuni, oilaning rahnamosi, oilasining taʼminotchisi va boquvchisi, eng xolis nasihatgoʻy, oʻz bolalarining faxru gʻururi, bola uchun namuna hisoblanadi. “Ota oilada oʻz farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, oʻzaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida toʻgʻrilik va haqqoniylik, samimiylik va xolislik yuzasidan namuna koʻrsatadi”[3]. Aynan shu asoslar va axloqiy mezonlar farzandni ulgʻayishiga, jamiyatga integratsiyasida muhim ahamiyatga ega boʻladi. “Bola onani oʻzining bir boʻlagi deb his qilsa, otani hayotda yoʻl koʻrsatuvchi shaxs deb biladi. Ona bola uchun mehr manbai boʻlsa, ota bola uchun dunyoga olib chiquvchi yoʻldir”[4]. Demak, u bolaga dunyoni tanishtiradi, unga hayot saboqlarini oʻrgatadi, muammolarni hal qilishga yordam beradi, unga yoʻl koʻrsatadi va uning himoyachisi boʻladi. Ota bolani mustaqillikka, masʼuliyatli boʻlishga, hayot qiyinchiliklariga qarshi tura olishga oʻrgatadi. Otaning ibratini bolaga jamiyatda oʻz oʻrnini topishga koʻmak beradi.

Aynan ota bolaning dunyoni anglashini ragʻbatlantiruvchi, unga shakl beruvchi kuch hisoblanadi. Lekin ota bu yerda faqatgina yoʻl koʻrsatuvchi emas, balki nazorat qiluvchi hamdir. Ona mehri shartsiz va cheksizdir. Ota mehri esa talabchanlikka qurilgan. U koʻproq bolaning erishgan yutuqlariga qarab beriladi. Oilaviy tarbiyada ibratlilik tamoyili muhim ahamiyat kasb

etadi. Ibratlilik - bu otaning oiladagi eng muhim va ta'sirchan rollaridan biri. Bolalar otasini nafaqat oila boshlig'i, balki o'zi uchun ibratli inson sifatida qabul qiladilar. Ota ibratlari – bu otaning hayoti, xatti-harakatlari, so'zlari va munosabati orqali farzandlarga ko'rsatadigan ijobiy namunasidir. Farzandlarning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida ota ibratining ahamiyati katta. Ota ibratlari uning o'z farzandlari uchun axloqiy, ma'naviy va aqliy jihatdan o'rnak bo'lishini anglatadi. Bu degani, ota o'z hatti-harakatlar, so'zlari va qilgan ishlari bilan farzandlariga yaxshilikni o'rgatadi, ularga to'g'ri yo'lga ko'rsatadi va ularning kelajagi uchun mas'ul bo'ladi.

Ota ibratlari otaning farzandlariga namuna bo'lishi, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishi va har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashidir. Otaning ibratlari, avvalo, uning kundalik turmush tarzi, muomalasi, xulq-atvori va odatlari orqali namoyon bo'ladi. Otaning ibratlari va oila ichidagi o'rni, oilaning barqarorligi, sog'lom muhiti hamda farzandlarning tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ota farzandlariga namuna bo'lishi, ularni axloqiy, ijtimoiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashi kerak. Ota oiladagi o'z rolini anglashi, o'z mas'uliyatini his qilishi va oila a'zolariga g'amxo'rlik qilishi muhim. Otaning oiladagi mavqei muhim va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u otaning oiladagi roli, mas'uliyati, huquqlari, nufuzi va ta'sirini o'z ichiga oladi. Otaning oiladagi o'rni nafaqat oilaning barqarorligiga, balki farzandlarning tarbiyasi va shaxsiy kamolotiga ham sezilarli ta'sir qiladi.

Otaning oiladagi o'rnini mustahkamlashda bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Moddiy ta'minot. Ota oilaning moddiy jihatdan barqarorligini ta'minlash orqali o'z mavqegini oshiradi. Moliyaviy barqarorlik oiladagi barcha masalalarning samarali hal qilinishiga yordam beradi.

2. Oilaviy qaror qabul qilishda ishtirok. Oilaviy qarorlarni qabul qilishda otaning ishtiroki muhimdir. Ota bu jarayonda faol bo'lishi, o'z fikrini bildirishi, muzokara olib borishi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak. Qaror qabul qilishda oila a'zolarining fikri inobatga olinishi va barcha uchun foydali bo'lgan yechimga kelinishi kerak.

3. Muloqot va hurmat. Otaning mavqegini mustahkamlashda har bir oila a'zosi bilan adolatli va samimiy munosabat o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Turmush o'rtog'i hamda farzandlari bilan ochiq va do'stona muloqot qilish oilaviy rishtalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Oilaviy an'ana va marosimlar. Otaning oilaviy an'ana va marosimlardagi ishtiroki ham uning mavqegini oshirishda muhimdir. Masalan, dam olish kunlarida oila a'zolari bilan birgalikdagi vaqt o'tkazish yoki bayramlarni birgalikda nishonlash.

5. Mas'uliyat va javobgarlik. Ota o'z mas'uliyatini yaxshi anglashi va javobgarlikni his qilishi lozim. Bu oila a'zolarining bir-birini qadrlashlariga sabab bo'ladi.

Ushbu omillar otaning oiladagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Otaning nufuzining oshishi oila farovonligi, farzandlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Otaning ibratli bo'lishi shaxsning shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga, farzandlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishiga hamda ularni muvaffaqiyat sari yo'naltirishga yordam beradi.

Bolalar otasiga taqlid qilish orqali o'z shaxsini shakllantiradilar. Agar ota mehribon, adolatli va halol bo'lsa, farzandlari ham shunday xususiyatlarga ega bo'lib voyaga yetadilar. Ibratli ota oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch muhitini yaratadi. Bu esa oilaning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ibratli otalar tarbiyasida ulg'aygan bolalar kelajakda namunali va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadilar. Otaning qo'llab-quvvatlashi va ishonchi farzandlarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda ularni muvaffaqiyat sari intilishga rag'batlantiradi. Olimat ul-Banot ta'kidlaganidek, "hech bir ota bolasiga yaxshi odobdan ortiq hadya berolmaydi"[5]. Farzand bilan munosabatda otalarning roli va ularning yondashuvi turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa, asosan, otaning shaxsiyati, dunyoqarashi, madaniyati, shuningdek, farzandining yoshi va individual xususiyatlariga bog'liq.

Oilada otaning farzand bilan munosabati tahlil qilinganda quyidagi jadvaldagi xulosa hosil qilindi:

Akula ota	Boshqaruvni mahkam tutadi. Bolalar erkini tamoman o'ziga bo'ysundirishga harakat qiladi. Ularning har bir qadami va harakatini nazorat qilib turadi. Boshqalarning tuyg'ulari bilan aslo hisoblashmaydi. Bunday insonda boshqaruv hissi tuyg'udan ustun turadi	<i>Natija:</i> Munosabatlar uzoqqa bormaydi. Ota-ona keksayadi, boshqaruv farzandlarga o'tib ketadi. Yoki farzandlar ota-onaga boshqacha qiyofada, o'zgalarga esa boshqacha qiyofada ko'rinda boshlaydilar
Ko'ngilchan	Bu inson boshqalarning hohishi va tuyg'ulari uchun o'z huquqlaridan, jumladan, boshqaruvdan ham voz kechishi mumkin. Bunday kishida tuyg'ular boshqaruvdan ustun	<i>Natija:</i> Farzandlar ota-onani bosib o'tib ketadilar. Chunki ruhan zaif odam bilan hech kim hisoblashmaydi. Oxir-oqibat ota-ona farzandlar quliga aylanadi.

	turadi	
Beparvo ota	Bu insonda na boshqaruv bor, na tuyg‘u	<i>Natija:</i> Boshqaruv boshqalar: amaki, amma, xola yoki farzandlardan birotasining qo‘liga o‘tib ketadi.
Tulki ota	Bu inson o‘z manfaati uchun kerak bo‘lganda tuyg‘udan, kerak bo‘lganda boshqaruvdan foydalanadi. Bundaylarda manfaat tuyg‘u va boshqaruvdan ustun	<i>Natija:</i> Farzandlarda ham barqaror tuyg‘u ko‘rinmaydi, balki tovlamachi, sharoitga moslashuvchi kishilar bo‘lib shakllanadilar
Namunali	Bu insonda boshqaruv ham, tuyg‘ular ham o‘z o‘rnida va me‘yorida.	<i>Natija:</i> Bu oilalardagi o‘zaro munosabatlar namunali darajada, ko‘ngildagidek bo‘ladi.

Otaning farzand bilan munosabati har xil bo‘ladi, biroq eng muhimi – bu mehr-muhabbat, hurmat, o‘zaro tushunish va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan ijobiy munosabatlardir. Otalar farzandlarining individual xususiyatlarini inobatga olib, ular bilan munosabat o‘rnatishda moslashuvchan bo‘lishlari va ularga eng yaxshi namuna bo‘lishga harakat qilishlari kerak.

Z.Mateychikning fikricha, “otaning roli muayyan xatti-harakatlar namunasini, ishonch va hokimiyat manbaini ifodalaydi. Ota intizom va tartibni ifodalaydi. Otalik hokimiyatisiz o‘sayotgan bola, qoida tariqasida, intizomsiz, ijtimoiy va kattalar va bolalarga nisbatan tajovuzkor bo‘ladi”[6]. Otaning tarbiyadagi ustunligi shuki, u butun atrof-muhitni o‘rganish maydoni deb ko‘ra oladi. Bolaga sabab va oqibat qoidasini amaliy ko‘rsata oladi. Odatiy narsalardan noodatiy narsalar chiqara olishni o‘rgatadi va bu yo‘l bilan bolaning ongini kengaytirib yuboradi. Otagina farzandning qiyinchiliklar orqali toblanishini ta‘minlaydi.

Psixologlar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda otaning eng muhim vazifalarini ko‘rsatib o‘tishadi. A.Mixaylova fikricha, “jismoniy rivojlanish - ota bir yoshgacha bo‘lgan bolalarda vosita ko‘nikmalarni shakllantirishda ishtirok etadi; fikrlash - ota, agar xohlasa, bolani gapirishga o‘rgatishda muhim yordamchiga aylanishi mumkin. Ota bilan yaqin aloqalar bolada

mantiqiy va aniq fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi; ijtimoiylashuv - ota bolaga jamiyatda qat'iy bajarilishi kerak bo'lgan muayyan talablarni qo'yadi. U bolani atrofidagi insonlarni hurmat qilishga va uydan tashqarida o'zini to'g'ri tutishga o'rgatadi. Tarbiya jarayonida bola ma'qullash, tanqid qilish va jazolash nima ekanligini otadan o'rganadi; jinsni aniqlash - otaning xatti-harakati o'g'il uchun standart bo'ladi"[7].

Bolaning rivojlanishi uchun eng muhim narsa ona va bola o'rtasidagi bog'liqlik ekanligi haqida tasdiqlangan stereotip mavjud. Ammo ma'lum bo'lishicha, bolaning otasi bilan muloqoti uning shaxsiyatini to'liq shakllantirish uchun muhim emas. Xo'sh, nima sababdan otaning o'rni ko'pincha ikkinchi darajali deb qabul qilinadi? "Sotsiologlar qiziqarli tadqiqotlar o'tkazdilar. Har o'n kishidan yettitasi ona va ota bolani tarbiyalashda teng mas'uliyat yuklaydi, deb hisoblaydi. Lekin haqiqatda otalar yiliga o'rtacha bir oydan kamroq vaqtni farzandlari bilan o'tkazadilar. Ammo otasiz o'sayotgan bolalar yomonroq o'qishi bizga ma'lum. Bundan tashqari, bunday bolalar jinoyat sodir etish ehtimoli ko'proq"[8]. Chunki har bir bola har tomonlama kamol topishga ehtiyoj sezadi, bu esa faqat ota-onaning har ikkisi ishtirok etganda amalga oshadishi.

Yaxshi ota farzandlari uchun mehribon, g'amxo'r, mas'uliyatli, hurmatli, adolatli, ibratli, sabrli, o'z ustida ishlaydigan va o'z-o'zini boshqara oladigan insondir. Yaxshi ota bo'lish oson emas, lekin bunga intilish, o'z ustida ishlash va farzandlari uchun yaxshi namuna bo'lishga harakat qilish har bir otaning burchidir. Yaxshi ota bo'lish - bu doimiy o'rganish, rivojlanish va farzandlaringiz bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishni talab qiladigan jarayon. Ota bolaning hayotida muhim o'rin tutadigan, uning shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan insondir. Ota sababli bola hayotga bo'lgan munosabat, axloqiy fazilatlar, ijtimoiy ko'nikmalar, jismoniy kamolot va erkaklik-ayollik munosabatlariga oid ko'plab muhim jihatlarni o'rganadi. Shuning uchun otaning o'z rolini anglashi, farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashishi va farzandlariga ibratli namuna bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Abdurauf Fitrat bola tarbiyasida milliy qadriyatlar, ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratgan. "Odamning fe'l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, – deb yozadi Abdurauf Fitrat. Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmati, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etmoq lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin, so'nmasin, balki ko'karsin"[9].

D.S.Akivis o'zining "Ota sevgisi" asarida mehribon ota ko'pincha ayolga qaraganda samaraliroq tarbiyachi ekanligini ta'kidlaydi. "Ota bolalarga kamroq g'amxo'rlik qiladi, ularga ko'proq mustaqillik beradi, bolani o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi. Otalik muhabbati

kelajakdagi bolalar uchun ota-onalarning xatti-harakati, hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, umuman olganda, gender roli pozitsiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ota bilan ijobiy munosabatlar bolalarda bosiqlik, vazminlik, hissiy muvozanat, xotirjamlik, o'zini tuta bilish, ijtimoiy me'yorlarni yaxshi anglash, ijtimoiy muhit talablarini yanada muvaffaqiyatli o'zlashtirish kabi fazilatlar bilan bog'liq"[10]. Asardagi ota obrazi orqali muallif ota sevgisining qudratini, oilaning muhimligini va otaning farzand tarbiyasidagi beqiyos rolini ko'rsatib beradi. Bunday otalar har qanday jamiyatda ham qadrlanadi va ularga hurmat ko'rsatiladi.

“Oilada o'g'il farzand tug'ilganda avlodlar davomchisi, oila qo'rg'oni, yurt tayanchi, Vatan himoyachisi dunyoga kelgani vasf etilgan, o'g'il tuqqan ayolning ham hurmati oshgan. Ulg'ayib uylangach, jufti haloli unga itoatda, farzandlari hurmatda bo'lgan. Ota atalmish qo'rg'oni bor oila hayotning har qanday sinovlari oldida to'zimagan, balki toblangan. Ota bosh bo'lgan oilada o'sgan yigit or-nomusli, sheryurak, o'quvli, mehribon, shijoatli, qiz bola esa hayoli, muomalali, oila, chaqqon, beg'ubor, samimiy, to'g'riso'z bo'lib tarbiyalangan”[11]. Oilada o'z vazifasini to'liq bajara olmagan otaning o'g'li kelajakda nafaqat oilani boshqarishda, balki komil inson bo'lib yetishishida ham muammolarga duch keladi. Ular ulg'aygach, har qanday hayotiy muammolarga duch kelganda, yana o'sha eski his-tuyg'ular iskanjasiga tushib qoladi va bolalikdagi ruhiy jarohatlar ularni qiynayveradi.

“O'g'il bola ota bilan doimiy aloqaga muhtoj. Kattalarni kuzatib, o'g'il bolalar kuchli jinsga xos bo'lgan imo-ishoralar, harakatlar va xulq-atvorni shubhasiz tanlaydilar. Va birinchi navbatda, ular otalarining xatti-harakatlariga taqlid qilishadi. Agar ota farzandining haqiqiy erkak bo'lib ulg'ayishini istasa, u bilan ko'proq vaqt o'tkazishi, tushunishi, ishonch va hurmatini bildirishi kerak. Erkaklik, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati, jasorat va boshqa ko'plab fazilatlar haqiqiy erkakka xos bo'lgan fazilatlar o'g'il bolaga otasi bilan muloqot qilish jarayonida singdiriladi”[12]. Ota ibрати o'g'il uchun hayot bayrog'idir. Erkakning xulq-atvor modeli bolaning ongsizligida shakllanadi. Ota o'z nufuzi bilan qanday yashash va nimaga intilish haqida o'rnak ko'rsatadi. O'g'ilni tarbiyalayotgan erkak har kuni uning xatti-harakati va odatlarini kuzatishi kerak. Axir, agar u xato qilsa, bola darhol yomon o'rnak oladi.

“To'ng'ich o'g'il – otadan namuna”, deyishadi. Nega shunday bo'ladi? Chunki bolang sening yurish-turishingni, gapirishingni, qiliqlaringni har kuni, takror-takror ko'rib boradi. O'zi sezmaganda, ko'zi orqali sendan namuna olib-olib, senga o'xshab ketadi. Shunday ekan, unutma: O'g'ling ertaga o'zini qanday tutishini istasang, sen o'zingni shunday tut!”[13]. Bu hikmatli so'z farzand tarbiyasida otaning shaxsiy namuna bo'lishining muhimligini ta'kidlaydi. Agar ota yaxshi fazilatlariga ega bo'lsa va shunga mos ravishda hayot kechirsa, farzandlar ham

shunga intiladilar. Shuning uchun har bir ota farzandiga faqat soʻz bilan emas, balki oʻz hayoti, xatti-harakatlari, munosabati va turmush tarzi bilan ham tarbiya berishi kerak.

Ota ibрати shaxsning shakllanishi, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, bolalarning oʻziga boʻlgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Ota namuna boʻlishi uchun quyidagilarga amal qilishi lozim:

- oʻz ustida ishlash: ota oʻz kamchiliklarini anglab, ularni bartaraf etish ustida ishlashi kerak.

- oila aʼzolari bilan muloqot qilish: ota farzandlari bilan ochiq va samimiy muloqot qilishi, ularning muammolari va fikrlarini eshitishi kerak.

- vaqt ajratish: ota farzandlari bilan vaqt oʻtkazishi, ular bilan birga oʻynashi, sayohat qilishi va ularning hoxish-istaklari bilan qiziqishi kerak.

- namuna koʻrsatish: ota oʻz hatti-harakatlari bilan farzandlari uchun yaxshi namuna boʻlishi kerak.

- maqsadli tarbiya: ota farzandlarini maqsadli tarbiya qilishi, ularga bilim berishi va kelajakda muvaffaqiyat qozonishga yordam berishi kerak.

Otaning ibratliligi oilaning mustahkamligi va farzandlarning kelajagi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ibratli ota oʻz farzandlarini hayotda toʻgʻri yoʻlni tanlashga, muvaffaqiyatga erishishga va baxtli boʻlishga oʻrgatadi.

Abulhay Tursun taʼkidlaganidek, “Erkak kishining fidoyi va mehnatkashligi ayoli va farzandlariga taʼsir qiladi. Umuman, oila barqarorligiga otaning barcha xususiyat va fazilatlari, kamchilik va nuqsonlari taʼsir etmay qolmaydi. Agar erkakning axloqiy va ijtimoiy jihatlari qoniqarli boʻlmasa, oila aʼzolarida norozilik boʻlishi mumkin. Mehnatsevarlik, uddaburonlik oila boshligʻi – erkakning barcha fazilatlarini roʻyobga chiqaradigan vosita, deya olamiz”[14]. Bu ikki fazilat erkakning oilaga nisbatan masʼuliyatini toʻliq bajarishiga, oilaning farovonligini taʼminlashiga, farzandlari uchun namuna boʻlishiga va oilada hurmatga sazovor boʻlishiga koʻmaklashadi.

Ota koʻp qirrali faoliyati bilan olijanob fazilatlar sohibi sifatida oila saltanatini boshqarib turadi, uning iymoni - oilaning ishonchi, uning vijdoni – oilaga sadoqat mezoni, uning obroʻsi – oila fazlu kamoli nishonasi[15]. Otaning yuksak fazilatlari oila va jamiyat hayotida muhim rol oʻynaydi. U oʻz xislatlarini doimiy ravishda rivojlantirishga intilib, oilasiga mehribon, masʼuliyatli, adolatli va halol boʻlishi kerak. Otaning ezgu fazilatlari farzandlarning toʻgʻri tarbiya olishi, oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishi hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun otalik masʼuliyatini his qilish, oilaviy qadriyatlarni qadrlash va otaning fazilatlariga eʼtibor qaratish jamiyat uchun muhimdir.

Xulosa. 1. Ibratlilik tamoyili oilaviy tarbiyaning asosiy ma'naviy mexanizmidir. Ota o'zining xulqi, mas'uliyati va hayotiy pozitsiyasi orqali farzandlar uchun real namunaga aylanadi. Shu bois, ibratli ota obrazini shakllantirish oilaviy tarbiya samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

2. Oila institutida otaning mavqeini oshirish nafaqat iqtisodiy yoki tashkiliy rolni kuchaytirish, balki ma'naviy yetakchilikni tiklashni ham talab etadi. Ota o'zining axloqiy namunadorligi orqali farzand ongida mas'uliyat, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni singdiradi, bu esa jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.

3. Ibratlilik tamoyili Yangi O'zbekiston davridagi ma'naviy islohotlar ruhiga mos keladi. Chunki u oila ichida insonparvarlik, o'zaro hurmat va ma'naviy uyg'unlikni mustahkamlashni nazarda tutadi. Ota shaxsining ijobiy modeli oilaviy birdamlikni ta'minlab, farzandlarda sog'lom ijtimoiy ongni shakllantiradi.

4. Adabiy, pedagogik va falsafiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ibratlilik tamoyilining amaliyotga tatbiqi tarbiya jarayonining tabiiyligini ta'minlaydi. Ota o'zining hayotiy yo'li, axloqiy qaror va xatti-harakati bilan farzand uchun ideal shaxsiy mezon vazifasini bajaradi, bu esa tarbiya samaradorligini oshiradi.

5. Ota mavqeini oshirishda ibratlilik tamoyilining to'laqonli ishlashi uchun jamiyatda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oila siyosatini qo'llab-quvvatlash va otalik madaniyatini rivojlantirish zarur. Shu yo'l bilan ibratli ota modeli milliy qadriyatlar tizimida barqaror axloqiy an'anaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мид М. Отцовство у человека - социальное изобретение [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://ec-dejavu.ru/f/Family.htm> (дата обращения: 26.09.2024).
2. Савинков С. Н., Козырева В. В. Исследование представлений об ответственном отцовстве у молодых людей, не имеющих собственных детей // Вестник ГУУ. 2019. №11. (дата обращения: 05.01.2025).
3. Bonu Atajonova. Estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyada oilaning o'rni // Scientific progress. 2022. №4. (дата обращения: 02.01.2025).
4. М.Мўминжон қизи, А.Миравазов, Зубайда Зокир қизи. Ота-оналик санъати. – Т.: Akademnashr, 2019. – В.49.
5. Олимат ул-Банот. Муошарат одоби. – Т.: “Меҳнат”. 1991. – Б.28.
6. Матейчик, З. Родители и дети: Книга для учителя / З. Матейчик. - М.: Просвещение, 1992. – С.82.

7. Михайлова Анна Ивановна (2012). Отцовство как новый тип родителей в контексте научного знания. Вестник Забайкальского государственного университета, (12), –С.70-79.
8. Чикалова Е.А. Социальные представления об отцовстве и нормы маскулинности у молодых мужчин. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук. Санк-Петербург 2014. – С.16.
9. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000, - Б.86
10. Аквис Д.С. Отцовская любовь. М., 1989. –С.208.
11. Boboyev A. Farzand tarbiyasida ota-onaning oʻrni.
12. Левченко А.В. «Представления о собственном отцовстве у мужчин и факторы, их обуславливающие». Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук. Краснодар 2009. – С.23.
13. Куронов М. Оталар китоби. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б.19-20.
14. Абулхай Турсун. Мустаҳкам оила асослари. – Т.: “Мавароуннаҳр”. 2012. – Б.90.
15. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила Маънавияти. – Т.: “Маънавият”. 2009. – Б.53.
16. Absattorov, B. M. (2019). Spiritual And Moral Development Of The Person In Modern World. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), 167-173.
17. Абсатторов, Б. (2019). Шахс маънавий-ахлоқий баркамоллиги мезонларининг фалсафий талқинлари. Scienceweb academic papers collection.